



HAYOT DAVOMIDA TA'LIM OLIH: YANGI PARADIGMALAR VA KUTILADIGAN NATIJALAR

FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

H.Urmonova

Sharof Rashidov nomidagi SamDU talabasi

SHAVKAT RAHMON SHE'RIYATIDA ANTONIM SO'ZLARNING QO'LLANILISHI

Annotatsiya: Badiiy asar tilida poetik individuallikni ta'minlash uchun ijodkorlar barcha til birliklaridan unumli foydalanishadi. Xususan, antonimlar adiblar, shoirlar maqsadini tugal ochib berishda asosiy vosita sanaladi. Ushbu maqolada antonimlarning Shavkat Rahmon she'riyatida qo'llanilish xususiyatlari o'rganilgan.

Kalit so'zlar: *antonim, tazod, antiteza, Shavkat Rahmon, kontrastli obrazlar, leksik antonimiya, frazeologik antonimiya, leksik-frazeologik antonimiya*

“Antonimiya so'z juftligida muayyan leksik ma'noning o'zaro qarama-qarshi bo'lishidir. Ya'ni o'zaro qarama-qarshi ma'noga ega so'z juftligidagi antonim deyiladi” [2. –B.178]. Tilda antonim so'zlarning mavjudligi badiiy nutqning ifodaliligi, ekspressivligi, ta'sirchanligini ta'minlashda qulay vositalardan biridir. Mumtoz adabiyotda ham bu vosita ko'p qo'llanilgan bo'lib, u tazod deb yuritiladi. “Shoir uchun juda zarur bo'lgan san'atlardan biri tazoddir. Bu san'at yana mutobaqa, tiboq, tatbiq, muttazod, ittizod va takafu deb ham ataladi. Bu san'atda, badiiyshunoslarning aytishicha, zid ma'noli so'zlardan foydalaniladi” [3. –B.64]. Yevropa filologik an'anasida bu san'at “antiteza” deb yuritiladi. “Antiteza-badiiy asarda bir-biriga zid ma'noli so'zlarni yonma-yon qo'llash, qarshilantirish san'atidir”[1.–B.63]. Shoir va yozuvchilar voqelikni narsa va hodisalarning belgi-xususiyatlaridagi farqli tomonlarini ko'rsatishda, bir-biriga qarama-qarshi qo'yib tasvirlashda kuchli stilistik vosita antonimlardan o'rinli foydalanadi. Sh.Rahmon asarlarida ham antonimlar juda ko'p qo'llangan bo'lib, ular xilma-xil stilistik ottenkalarni ifodalaydi. Shoir antonimlardan turli voqeahodisa, predmetlarning xarakteristikasini berishda, lirik qahramonning xarakter-

xususiyatlarini, uning ichki his-tuyg'ularini hamda qahramonning fakt va voqeliklarini ifodalashda foydalangan. Shoir she'rlarida achchiq va shirin, vafo va jafo, yer-ko'k, issiq-sovuq, yaxshi-yomon, do'st-dushman va boshqa shu kabi antonimlar uchraydi: *Agar bu ummon tagida/ Qudratli daryo bo'lmasa,/ Tublari goh issiq goh sovuq/ Navqiron suvlarga to'lmasa/ Bo'lmasa xilma-xil harakat, Bu qadar ummonlik qayoqda./ Poyonsiz bir ko'lماك bo'lardi/ Botqoqqa do'nardi/ Botqoqqa (20).*

Sh.Rahmon antonim so'zlarni qo'llash bilan kontrastli obrazlar yaratdi va asarlarida ifodalanayotgan dramatismni kuchaytirishga erishdi: *Yildirimday lahza suratini / Yashirincha asr xotira / Meni bor ham yo'q qiladigan lahza porlab turar oldindan (20); Goh kulging keladi, / Goh yig'i kelmas,/ Ko'zlaring qurigan goh o'zanlar kabi,/ Mushtlarining og'riydi cho'ntaklaringda,/ Sen ham kechirgin,/ Bu olam kabir (243).*

Sh.Rahmonning so'zlarni qo'llashdagi yana bir mahorati shundaki, shoir ijobiy narsalarni, hayotbaxsh ideallar tasvirida yorqin bo'yoqlarday tasvirlaydi. Faqat zarurat tug'ilgandagina, vaziyat taqozosi bilan antonimlarni qo'llaydi, hayotning butun chuqurligi, murakkabligini, ziddiyatlarni aniq, konkret, kontrastli obrazlar asosida ochib berishga harakat qiladi: *Sen botirlar naslidan emas,/ Qanday chidar poyingda ruhlar!?!/ Halok bo'lgan botirlar jangda/ Tirik qolgan faqat qo'rqoqlar!..*

U.Tursunov, A.Muxtorov, Sh.Rahmatullayevlarning "Hozirgi o'zbek adabiy tili" darsligida ikki xil antonimiya ko'rsatilgan: I. Lug'aviy antonimiya – lug'aviy birliklarni o'zaro antonim bo'lishi: novcha-pakana, saxiy-baxil, bo'shang-olg'ir kabi.

II. Grammatik antonimiya – grammatik birliklarning o'zaro antonim bo'lishi. Bu juda kam uchraydi: -dan -ga (Uyga-uydan) kabi. Morfemalar antonimiyasi, asosan, leksema yasovchilarga to'g'ri keladi: -li, ba- (bo-), -siz, be-, no- kabi. Darslikda lug'aviy antonimiyaning ham uch xil leksik antonimiya, frazeologik antonimiya, leksik- frazeologik antonimiya kabi turlari aytib o'tilgan. Bu uchala turdagi lug'aviy antonimiya shoir she'rlarida uchraydi. Masalan, leksik antonimiya eng ko'p qo'llanilib, shoir issiq-sovuq, kun-tun, yaxshi-yomon, katta-kichik kabi antonimlardan o'z fikr-g'oyalarni ochishda unumli foydalangan:

Ko'p narsaga/ Ko'niksa bo'lar,/ loqayd qarab yolg'onu chinga,/ ruhning buyuk iztiroblarin,/ qudratlarin qamab ichingga (162). Ishlayverdi tog'am xotirjam, / farqlamasdan kunduzu tunni,/ shoshilmasdan, vaqt ham oqqa/ bo'yab qo'ydi sochlarin uning (166). Voqelikni, narsa va hodisalarning belgi xususiyatlardagi farqli tomonlarini ko'rsatishdan, bir-biriga qarshi qo'yib tasvirlashda shoir leksik antonimlardan o'rinli foydalanib, o'ziga xos, individual obrazlar yaratishga erishgan: *Go'yo shu yer,/ shu xokisor yer/ farqlar yaxshi, yomon- barini,/ tanib olar bir kun baribir/ o'zin asl jallodlarini (177).* Ba'zan inson xarakterini ochishda ham shoir antonimlardan foydalangan: *Og'izlarida bulutday ko'pik,/ yuzlari oq, ichlari -qora,/ qizig'i, bu zotlar qaylarda/ kimlarnidir qilar idora (168); Bir daqiqa kuzatdim kulib, / Men kim- yetti iqlim sultoni,/ Ishchan qarol- go'l tabiatday/ Hayron qilib qo'yay dunyoni (244).*

Sh.Rahmon she'rlarida kontekstual antonimlar ham keng qo'llangan. U.Tursunov, J.Muxtorov, Sh.Raxmatullayevning "Hozirgi o'zbek adabiy tili" darsligida kontekstual antonimlar haqida quyidagi fikrlar keltirilgan: Leksik ma'no bilan leksik qo'llash orasidagi antonimik munosabat kontekstual antonimiya deb nomlanishi mumkin. Bunday antonimiya har gal nutqning o'zida voqe bo'ladi, nutqdan tashqarida yo'qqa chiqadi, ko'pincha individual nutqqa xos bo'ladi [5.– B.125]. Shoir she'riyatida ham xuddi shunday o'ziga xos, individual kontekstual antonimlar kontrastli obrazlar hosil qiladi. Bu turdagi antonimlar shoir qalami ostida hayotning, inson tafakkurining, ichki kechinmalarning jo'shqin, murakkab ziddiyatlarga to'liq ko'rinishlarini haqqoniy aks ettirishga xizmat qiladi. Masalan, quyidagi misralarda kulmoq va qo'rqmoq fe'llari kontekstual antonimlik hosil qilmoqda. Aslida bu so'zlar o'zaro antonim emas. Ma'lum kontekstda qo'llash sababli bular antonimiya munosabatini hosil qiladi, xolos: *Bunda chumchuq yerga qo'nmaydi,/ bundan parvoz qilmaydi nag'ma,/ kulgani hech kimsa ko'nmaydi, / qo'rqib yashar hammadan hamma (159)*. Quyidagi misrada yot/ o'z so'zlari kontekstual antonim sifatida qo'llanilmoqda: *Xayolimdan sira ketmas bu/ Ulug' o'lim-abadiy firoq,/ Yot o'limga kelaverar duch, O'z o'limi yo'q edi biroq... (93)*.

Quyidagi misralarda esa yurmoq va chopmoq so'zlari kontekstual antonim hosil qilib, qahramon holatini tasvirlashga xizmat qilmoqda: *Uzoq yurdim keksa tog' sari/ goh odimlab gohida chopdim,/ nuragan tosh, qoya tagidan/ go'yoki tog' ko'zlarini topdim (60)*. Aslida sovuq so'zining antonimi issiq so'zidir. Lekin quyidagi misrada sovuq va iliq so'zlari kontekstual antonimlik hosil qilgan: *Juda zarur sahardan boshlab/ Ko'chalarni suyub bosmog'ing,/ Qotib qolgan sovuq yuzlarga/ Iliq tabassumlar osmog'ing (40)*.

Bizga ma'lumki, antonimlar, asosan, belgi anglatuvchi leksemalarda mavjud. Shunga ko'ra ular sifat, ravishlarda ayniqsa ko'p. Shoir she'rlarida ham shu turkumdagi antonimlar ko'p uchraydi: *Sen botirlar naslidan emas,/ Qanday chidar poyingda ruhlar!// Halok bo'lgan botirlar jangda/ Tirik qolgan faqat qo'rqoqlar!.. (92); Goh olovday gurullab yonib, / Goho muzdek bo'lib qator. (111)*. Ba'zan yasama sifati bilan otlashgan sifat antonimlik hosil qiladi: *Darchalarga yuzlarin bosib,/ Bolalarday qarar kattalar (10)*. Ot, fe'l so'z turkumiga xos bo'lgan antonimlar ham Sh.Rahmon she'riyatida mavjud va bu antonim so'zlar shoir g'oyalarini ochishga xizmat qilgan: *Quyosh o'chdi, yondi bulutlar,/ Maysalarning ko'zi yoshlari (49); Fursat esa –/Shoshqaloq bola,/ Mevalarning xush bo'yin tuyib./Atrofimdan tinmay aylanar,/ Goh kunduzni, goh tunni kiyib...(69); Nurlarini yig'ib olar kun,/ Osmon yerga tashlar soyasin (47)*.

Xullas, Sh.Rahmon antonimlardan o'z maqsadini ochib berishda, his-tuyg'ularni ifodalashda g'oyat san'atkorona foydalangan.

Adabiyotlar:

- 1.Йўлдошев М. Бадиий матн ва унинг лингвопоэтик таҳлили асослари. – Тошкент: Фан, 2006. 63-б.
- 2.Миртожиев М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент, 2004.
- 3.Рустамов А. Навоийнинг бадиий маҳорати. – Тошкент, 1976.
- 4.Раҳмон Ш. Сайланма. – Тошкент: Шарқ, 1997.



5.Турсунов У. Мухторов А. Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили.
– Тошкент: Ўзбекистон, 1992.